

MATEMATIKA MASHG'ULOTLARIDA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISH BO'YICHA KORREKSION ISH

Xamidova Muyassar Polsaidovna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Oligofrenopedagogika kafedrası professor v.b., p.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda fazoviy va uzunlik tushunchalarini shakllantirish orqali lug'at boyligini oshirish masalasi yoritilgan. "Fazoviy tasavvurlar" va "Uzunlik haqidagi tasavvurlar" mavzulari asosida 10 ta korreksion mashg'ulot o'tkazilgan. Maqolada defektologik yondashuv asosida o'tkazilgan darslarda bolalarning nutq faolligini oshirish, muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish, diqqat, xotira va tafakkurni faollashtirishga qaratilgan metodlar tahlil etilgan. Shuningdek, mashg'ulotlarda qo'llanilgan didaktik o'yinlar, suhbat, amaliy mashqlar orqali fazoviy va uzunlik tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: aqli zaif bolalar, fazoviy tasavvurlar, uzunlik tushunchasi, lug'at boyligi, defektolog, korreksion mashg'ulot, nutqni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, didaktik o'yinlar, metodika.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема расширения словарного запаса у детей дошкольного возраста с задержкой психического развития посредством формирования пространственных представлений и представлений о длине. Проведено 10 коррекционных занятий по темам «Пространственные представления» и «Представления о длине». В статье анализируются методы, направленные на повышение речевой активности детей, развитие коммуникативных навыков, активизацию внимания, памяти и мышления на занятиях, проводимых с использованием дефектологического подхода. Обоснована эффективность освоения пространственных и представлений о длине посредством дидактических игр, бесед и практических упражнений, используемых в занятиях.

Ключевые слова: дети с задержкой психического развития, пространственные представления, представление о длине, словарный запас, дефектолог, коррекционные занятия, развитие речи, дошкольное образование, дидактические игры, методика.

Annotation: This article discusses the issue of increasing vocabulary in preschool children with mental retardation through the formation of spatial and length concepts. 10 corrective exercises were conducted on the topics "Spatial representations" and "Imaginations about length". The article analyzes methods

aimed at increasing children's speech activity, developing communication skills, activating attention, memory and thinking in lessons conducted based on a defectological approach. The effectiveness of mastering spatial and length concepts through didactic games, conversations and practical exercises used in the exercises is also substantiated.

Keywords: *mentally retarded children, spatial representations, the concept of length, vocabulary, defectologist, corrective exercise, speech development, preschool education, didactic games, methodology.*

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning kognitiv rivojlanishi va nutq faolligini oshirish maxsus ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yosh davrida bolalarda atrof-muhitni anglash, predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish va ularni so'z bilan ifodalash qobiliyatini shakllantirish zarurdir. Ayniqsa, matematika mashg'ulotlari jarayonida lug'at boyligini kengaytirish nafaqat bilimlarni chuqurlashtirish, balki bolalarda nutq, tafakkur va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda "Fazoviy tasavvurlar" va "Uzunlik haqidagi tasavvurlar" mavzulari asosida olib borilgan mashg'ulotlar orqali bolalarda nutqni faol ishlatish, predmetlar o'rtasidagi fazoviy va o'lchoviy bog'liqliklarni tushunish, shuningdek, tasviriy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish vazifalari amalga oshirilgan.

Matematika mashg'ulotlarida lug'at boyligini oshirish "Fazoviy tasavvurlar", "Uzunlik haqidagi tasavvurlar" mavzusi asosida olib borildi. Umumiy miqdorda 10 ta mashg'ulot tadqiq etildi.

Maqsadi: Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda fazoviy va uzunlik tushunchalari asosida lug'at boyligini oshirish.

Matematika mashg'ulotlarida lug'at boyligini oshirish bo'yicha korreksion ish mobaynida quyidagi masalalar yechildi:

1. Ta'limiy:

Bolalarning fazoviy, vaqt va uzunlik tushunchalari haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirish va kengaytirish.

- tayanch sxema asosida hikoya tuzishga o'rgatish;
- bolalarning dunyoqarashlarini kengaytirish.

2. Korreksion maqsad:

- matematika mashg'ulotlarida lug'at boyligini oshirish, nutqini o'stirish, muloqot qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- diqqat, xotira, tafakkurlarini rivojlantirish;
- bolalarda faoliyatga ijodiy yondoshuvni rivojlantirish;

3. Tarbiyaviy maqsad:

- bolalarda bag'rikenglik. O'zini jamoada tutishga o'rgatish;
- ta'lim olishga motivatsiya uyg'otish;

- vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish;

- ta'limiy eksperiment ikki oy davomida olib borildi. Mashg'ulotlarda bolalar aniq bir mavzu bo'yicha tanishtirildi.

Bunda biz "Fazoviy tasavvurlar", "Uzunlik haqidagi tasavvurlar" mavzulari bo'yicha mashg'ulotlar ishlanmasini taklif qildik. Mavzular asosida maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning lug'at boyligini oshirishga diqqatimizni qaratdik.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning fazoviy tushunchalarini boyitishda quyidagi mavzulardan foydalandik:

"O'zi ustida mo'ljal olish o'z tana a'zolarini o'zlashtirish: bosh-tepada, oyoqlar pastda, o'ng oyoq, chap oyoq, o'ng quloq, chap quloq";

O'z holatiga nisbatan predmetlarni fazoda qanday joylashganligini aniqlash (oldida, orqasida, o'ngda, chapda, tepada, pastda) ya'ni berilgan buyum qaerda turibdi? Savoliga javob berish ko'nikmasi;

qog'oz varag'i ustida buyurilgan yo'nalishda mo'ljal olish (masalan, qog'oz varag'ining tepasida, pastida, o'ng tomonida, chap tomonida nimalar tasvirlangan).

Mashg'ulotning birinchi kunidan boshlab, ya'ni bolalarni partalarga o'tkazishda defektolog ular bilan fazoviy tasavvurlarni aniqlash imkonini beradigan suhbat uyushtiradi.

Fazoviy tushunchalarni mustahkamlash maqsadida doskaga bitta-ikkita bolani chiqarib savollar beriladi. Sen qaerda o'tiribsan? "O'ng yoningda kim o'tiradi? Chap yoningda kim o'tiradi?". "Oldida turish", "Orasida turish", "Orqasida kelish" kabi tartib munosabatlari ushbu savollar yordamida mustahkamlanadi. «Bu qatorda kim birinchi bo'lib turibdi? Undan keyin kim kelyapti? Kim uchinchi (to'rtinchi) bo'lib kelyapti? Bahodir bilan Ravshanning orasida kim turibdi? Bahodirdan oldinda kim turibdi? Bahodirdan keyin kim turibdi?

Suhbat taxminan quyidagicha o'tkazilishi mumkin: "Bolalar, hammangiz sinfda o'z joyingizni, qaysi partada o'tirishingizni eslab qoling. Kim Defektolog stoliga yaqin o'tiribdi? Kim Defektolog stolidan uzoq o'tiribdi? Bahodir ko'rsatchi, sening oldingda kim o'tiribdi? Orqangda kim o'tiribdi?" So'ng Defektolog birinchi navbatda qaysi fazoviy tasavvurlarni aniqlashi va vujudga keltirishini aniqlaydi. Masalan, o'ngda-chapda tushunchasini shakllantirishda, oldin Defektolog bolalar o'ng qo'llari qaysi, chap qo'llari qaysiligini biladilarmi, yo'qmi shuni aniqlaydi, o'ng qo'llari, chap qo'llari bilan ular kunda nima qilishadi. Keyin o'ng va chap qo'llarini ko'rsatishlarini so'raydi. Bolani uzoq muddat bitta holatda turib qolishi bilan bog'liq bo'lgan zo'riqishni tushunish uchun defektolog har bir darsda uncha katta bo'lmagan jismoniy mashqlar o'tkazadi. Bu mashqlardan o'z gavda a'zolarining fazoda joylashgan tomonlarining nomlarini aniqlash uchun foydalanish mumkin. Defektolog bolalarni asta-sekin o'z gavdalarini boshqarishga o'rgatadi, ular o'ng va chap oyoqlari bilan qadam bosadilar, o'ng va chap oyoqlarini ko'tarishadi, o'ng qo'llarini o'ng biqiniga, chap qo'llarini chap biqiniga qo'yadilar va h.k.

Bolalarni daftarda orientatsiya qilishga o'rgatish juda muhim, daftarning o'ng, chap tomoni, o'ng, chap chekkasi, daftar betining tepasi, past, o'rtasi, daftar betining burchaklari: ustki va pastki burchagi, o'ng va chap burchagi.

Hayotiy vaziyatlarni yaratish, maxsus o'yinlar, narsalarning fazoda joylashtirishga qaratilgan faoliyatlari, jismoniy tarbiya, qo'l mehnati mashg'ulotlari bolalarning fazoviy tasavvurlarini o'stirish va kamolotga yetkazishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning uzunlik tushunchalarini boyitishda quyidagi mavzulardan foydalandik:

1. Uzun-qisqa
2. Uzunroq qisqaroq
3. Eng uzun, eng kalta

U yoki bu tushunchalarni shakllantirish ustidagi birinchi darslar uchun didaktik materiallar, narsalar: ular bir-biridan faqat bitta belgisi bilan farq qiladigan qilib tanlanishi lozim. Masalan, narsalarning uzunlik belgisini shakllantirishda lenta, qog'oz tasmalari va h. k. ni shunday tanlash kerakki ular faqat uzunligi bilan farqlanib, boshqa hamma belgilari (eni, materiali, rangi) bir xilda bo'lishi kerak. Ko'rgazma materialni bunday tanlash muhim belgilar bilan muhim bo'lmagan belgilarni aralashtirmaslikning oldini oladi.

Defektolog bir lentaning ustiga ikkinchisini qo'yib, ularning uchlarini birlashtirishni so'raydi. Defektologni o'zi buni bolalarga ko'rsatadi. Hamma bolalar oldin kuzatib, keyin o'zlari narsalar bilan ish bajaradilar. Bunday ishlar bir necha bor takrorlanganidan so'ng bolalar qaysi lenta uzunroq, qaysinisi qisqaroq ekanligini aniqlab, xulosa chiqaradilar. Masalan, bolalar shunday deyishadi: "qizil lenta oq lentaga qaraganda uzunroq, oq lenta qizil lentaga qaraganda qisqaroq". Defektolog bir lentaning ustiga ikkinchisini qo'yib, ularning uchlarini birlashtirishni so'raydi. Defektologni o'zi buni bolalarga ko'rsatadi. Hamma bolalar oldin kuzatib, keyin o'zlari narsalar bilan ish bajaradilar. Bunday ishlar bir necha bor takrorlanganidan so'ng bolalar qaysi lenta uzunroq, qaysinisi qisqaroq ekanligini aniqlab, xulosa chiqaradilar. Masalan, bolalar shunday deyishadi: "qizil lenta oq lentaga qaraganda uzunroq, oq lenta qizil lentaga qaraganda qisqaroq".

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, matematika mashg'ulotlarida fazoviy va uzunlik tushunchalarini shakllantirish aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'at boyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday mashg'ulotlar orqali bolalar atrofdagi narsalarning fazoda joylashuvini, o'lcham munosabatlarini to'g'ri idrok etish va so'z bilan ifodalashni o'rganadilar. Shu orqali ularning nutqiy faolligi, tafakkur jarayoni va ijtimoiy moslashuv darajasi oshadi. Defektolog tomonidan to'g'ri tanlangan didaktik materiallar, suhbat va o'yin metodlari bolalarda nafaqat matematik, balki til, muloqot va tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois fazoviy va uzunlik tushunchalari

asosida lug'at boyligini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish maxsus pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khamidova, M. P., and S. O. Rajapova. "TECHNOLOGY OF FORMATION OF ELEMENTARY MATHEMATICAL IMAGINATION OF PRESCHOOL CHILDREN WITH DELAYED MENTAL DEVELOPMENT." International Journal of Pedagogics 2.12 (2022): 28-31
2. Khamidova M. P. Developing Mathematical Knowledge of Mentally Retarded Schoolchildren Using Computer Games //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
3. Хамидова М. П., Рузиев И. Д. ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ С УМСТВЕННО ОТСТАЛЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //SCIENCE AND WORLD. – 2013. – С. 80.
4. Khamidova, M. P. "A Study of the Impressive Vocabulary of Preschool Children with Mental Frailty." Journal of Pharmaceutical Negative Results 13 (2022).
5. Хамидова М. П., Исмаилова М. Ш. Специфика развития математического воображения умственно отсталых детей дошкольного возраста //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1363-1368.